

2023-yil – Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili

IJODIY PARVOZ



2023-yil yanvar № 1 (116) ✓ dsmi.uz ✓ nashriyot@dsmi.uz ✓ t.me/dsmi_uz

O’zbekiston davlat san’at
va madaniyat institutining
ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy,
ijtimoiy gazetasi

Munosabat

NAJOT – TA’LIMDA, NAJOT – TARBIYADA, NAJOT – BILIMDA



Eldor SHERMONOV,
O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
rektori v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Barcha sohalarda keng ko’lamli islohotlar hayotga tatbiq etilayotgan, taraqqiyot sur’ati tobora yuksalib borayotgan O’zbekistonda yashamoqdamiz. Albatta, bunday dunyo e’tirofidagi yutuqlarga, yangilanishlarga o’z-o’zidan erishib qolmadi. Zero, azaldan hammamizga ma’lum bir haqiqat borki, tinchlik-xotirjamlik bor zamindagina taraqqiyot, rivojlanish bo’ladi. Yurtimiz misolda ushbu aksiomaning amalda yaqqol namoyon bo’lishini yana bir bor ko’rib turibmiz. Tan olaylik, o’tgan yilning oxiri va kirib kelgan yilning dastlabki oyi jamiyatimiz, mamlakatimiz hayotida voqe va tadbirlarga juda boy bo’ldi. Avvalo, alohida ta’kidlab o’tishni istardim, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga navbatdagi Murojaatnomani taqdim etdi. Shubhasiz, mazkur Murojaatnomani 2023-yilda mamlakatimiz taraqqiyoti, jamiyat ravnaqi, yurtdoshlarimizning farovon hayoti uchun xizmat qiladigan dasturilamal bo’ldi.

Prezidentimiz tomonidan 2023-yil yurtimizda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb nomlanishi xalqimizning ruhini yanada ko’tardi. Zero, inson qadri ulug’langan jamiyatda taraqqiyot ham shunga yarasha bo’ladi. Ta’lim sifatini oshirish esa – Yangi O’zbekiston taraqqiyotining yakka-yagona to’g’ri yo’li ekanligi, Murojaatnomada alohida qayd etib o’tildi. Jadid bobolarimiz qayta-qayta ta’kidlashgani kabi: “Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”.

Mamlakatimizda aynan shunday tamoyillarga og’ishmay amal qilinmoqda. Agar e’tibor bersak, so’nggi yillarda respublikamizda oliyohollar 2,5 barobar ko’payib, 198 taga yetdi, qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga oshdi. Bular, albatta, katta ko’satkich. Navbatdagi vazifamiz esa ta’lim sifatini yanada, xalqaro standartlar dajasida yuksaltirishdir.



Yurtimiz posbonlari

Ma’lumki, har yili 14-yanvar “Vatan himoyachilari kuni” sifatida yurtimizda ko’tarinkи ruhda nishonlanadi. Yurtimizda Vatan himoyasi kabi sharafli, ulug’vor ishga o’zini fido qilgan posbonlarimiz, nafaqat ular, balki nafaqadagi faxriylarimiz holidan xabar olinib, qilgan barcha xizmatlariga tashakkurlar aytilib, mehnatlari qadrlanib, har yili 14-yanvar “Vatan himoyachilari kuni” katta bayram va shodiyona bilan o’tmoqda.

Vatanni himoya qilish, uning tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash barcha uchun muqaddas burch hisoblanadi. Bu burchni ado etishda vatanimiz himoyachilar bo’lgan milliy armiyamiz xizmatini munosib baholash hamda ularga sharoitlar yaratish masalalarini davlatimiz siyosatining muhim bir bo’lagi hisoblanadi. Tinchlikning qadriga yetish, har bir kunimiz hamda shukronalar aytishimiz uchun yurtimiz posbonlari bir asosdir.


Bugungi reallashayotgan kunda dunyoning turli burchaklarida keskin tus olayotgan vaziyatda terrorizm, ekstremizm va xavf-xatarlar barchamizni ogohlilikka chorlaydi. Bu esa Qurolli Kuchlarimizdan yuqori darajadagi jangovarlik qobiliyatini talab qiladi. So’nggi yillarda davlatimizda harbiy-siyosiy masalalarda ham tubdan islohotlar amalga oshirilib, milliy armiyamiz ham har tomonloma mustahkamlanib bormoqda. Albatta, harbiylik kasbi, uning mashaqqati alohida murakkab



Dinora RAHIMBOYEVA,
“Kutubxona-axborot
faoliyati” ta’lim yo’nalishi
3-bosqich talabasi

mavzu. Shu bilan birga sharaflidir. Posbonlarimiz kechani kecha, kunduzni kunduz demay, hamma narsaga bardosh berib, Vatanimiz tinchligini va uning sarhadlarini qo’riqlab kelmoqdalar.

Ulug’lar bisotidan



Ozod SHAROFIDDINOV,
O’zbekiston Qahramoni

Men bir narsaga hayron bo’laveraman. Qachon qaramang, to’rtta odam yig’ilsa, farzand tarbiyasining og’irligi, ularni odam qilishning azobligi to’g’risidagi hasratga duch kelamiz. Ey-y, birodar! Buning eng oson, eng arzon, eng samarali yo’li va usuli shundoq yoningizda turibdi-ku: bolangizni kitob o’qishga o’rgating, uning ko’nglida badiiy adabiyotga mehr va muhabbat uyg’oting, farzandlaringizga kitob sovg’a qiling. Axir dunyoda kitobdan ham aqlliyoq, undan ham donoroq biror ustozni topib bo’ladimi?

Kitobda yo’q narsaning o’zi yo’q-ku! Odamni odam qiladigan jamiki kuch-qudrat, hikmat, go’zallik, aql va odob kitobda “mana-man” deb turibdi-ku! Nahotki, bu buyuk ne’matdan, bebafo boylikdan bebahra bo’lib ham odam bo’lish mumkin deb o’ylasangiz?!

Sizga nisbatan
muomala me’yorini
buzganlarga ham
vazmin bo’ling.

Imom G’AZZOLIY

Kimdaki bir yaxshi
xislat ko’rsang undan
ajramaginki, albatta,
uning barokatidan
senga ham naf yetadi.

Hamdun QASSOR

Kambag’al, beva-
bechoralarga g’amxo’rlik
qil. Yolg’iz va zaif
kishilar bilan muloyim
bo’l, shunda boylik va
baxtga erishasan.
“Anvari Suxayli” asaridan

NAJOT - TA'LIMDA, NAJOT - TARBIYADA, NAJOT - BILIMDA

 Yana bir raqamga e'tibor qarataylik. Joriy yilda oliygoҳ talabalariga imtiyozli ta'lim kreditlari uchun 1,7 trillion so'm, ilm-fan va innovatsiyalarga esa 1,8 trillion so'm ajratiladi! Albatta, e'tibor va rag'bat bor joyda ijobji o'zgarish bo'ladi.

Shunday ekan, oliy ta'lim tizimida talabalarning, ya'ni bo'lajak kadrlarning ham salohiyat darajasi yuksalishi shart. Ya'ni yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk avlodni kamolga yetkazish bugun har birimizning muqaddas burchimizga aylanmoqda.

Shu ma'noda Yurtboshimizning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo'llagan bayram tabrigini alohida qayd etib o'tmoqchi edim: **"Dunyoda yuzaga kelgan hozirgi murakkab vaziyatda Vatanimiz mustaqilligi va suverenitetini, uning hududiy yaxlitligini ta'minlash, eng qimmatli boyligimiz – jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash naqadar muhim ahamiyatga ega ekanini barchamiz albatta chuqr anglaymiz"**, – deya ta'kidlab o'tildi tabrikda. Darhaqiqat, shunday. Bu jarayonda Vatanni sevish, ardoqlash, himoya qilish – har birimizning, ayniqsa, yoshlarimizning sharafli va muqaddas burchidir. Axir Vatan borki, biz mavjudmiz. Vatan – bu inson va uning avlod-ajodlari kindik qoni to'kilgan muqaddas dargohdir. Vatan – bu ajodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari chinakamiga shakllanib, o'sib, kamol topib boradigan zamindir. Shu bois Vatan ona kabi aziz va mukarramdir!

Shu o'rinda Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning purhikmat baytini keltirib o'tishni joiz bildik.

**Vatan tarkin bir nafas aylama,
Yana ranji g'urbat havas aylama.**

Yoki Oybekning bolaligimizdan har birimizga yod bo'lib ketgan o'tli misralarini eslaylik:

**Vatanni sev, tuprog'ini o'p,
Har qarichi muqaddas bizga.
Cho'lidagi hatto quruq cho'p,
Jondan yaqin yuragimizga.**

Bugungi yoshlarimiz Vatanimiz osoyishtaligi, nurli kelajagimiz, buyuk istiqbolimiz yo'lida fidoyi, intellektual yuksak, har tomonlama komil mutaxassis bo'lib yetishishlari lozim. Buning uchun esa, eng avvalo, bugungi yaratilgan qulay shart-sharoitlardan unumli foydalangan holda chuqr bilimga ega bo'lishlari, o'z iqtidorlarini to'la namoyon etishlari, mudom oldinga intishlari, o'qib-izlanishlari darkor. Biz ustozlar esa bu sharafli yo'lida yoshlarni mudom rag'batlantirib, yo'l-yo'riq ko'rsatishimiz shart.



Bag'rikeng ustozi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Axborot-resurs markazida kitob mutola qilib o'tirsam, bir guruuh talabalar shaxdam qadam, shiddatlari kuch-g'ayrat, hurriyat parvoziga oshufta shijoat ila bir-birining izidan xuddi ona tovuqqa ergashgan jo'jalardek kirib keldi. Ularning bir-ikkitasini "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasida ko'rganligim uchun tanidim.

Salom-alikdan so'ng so'rasam: "Ertaga innovatsion ochiq dars bo'ladi. Shunga guruhimiz bilan hamjihatlikda tayyorlanishga keldik", deb aytdi Baxtiyor ismli talaba. "Ha-a", dedim-da yana mutolaada davom etdim. Lekin ular bir oilaning farzanlaridek kitob va ro'znomalarni o'qishar, nimalarnidir axtarardi. Talabalarni darsga qiziqtirgan, ularni kutubxonaga jaib qilgan pedagogga ich-ichimdan tasannolar aytdim. Chunki kasbga jonfidolik o'qituvchidan sabot va matonat, talabalar bilan ishslash mahoratini talab qiladi. Ularni kuzatar ekanman, bu lahzalar xotiramda saqlanib qoldi. Talabalik davrimni yodga soldi. Bir-biridan jondek aziz kursdoshlarim ko'z oldimdan o'tdi.

Oradan birmuncha vaqt o'tgach, ertalabdan yana bir guruuh talabalarning chiroqli formada, "taq-tuq" qadam tashlab o'qishga chopib kelayotganiga guvoh bo'ldim. Ulardan qiziqib so'rasam: "Bugun ochiq darsimiz bor. Bu darslar davomi o'tilyapti. Har haftada", deb jilmayib qo'ydi Beruniy tumanidan kelib tahlil olayotgan Mahliyoxon ismli talaba qiz. Rivoyatlarda zikr etilishicha: "Agar inson tabiatida bu dunyoga qiziqish bo'lmaganida dunyo obod bo'lmas edi". Menimcha, ilmda ham shunday. Talabalarda qiziqish, albatta, bo'ladi. Amмо bu holatni payqash ko'pincha muallimning o'z kasbiga bo'lgan sevgisida namoyon bo'ladi. O'qimaydigan talaba bo'lmasa kerak, o'qita va uqtira olmaydigan o'qituvchi bo'lishi mumkin.

Maqolaning qahramoni yosh bo'lishiga qaramasdan "o'qituvchi" degan oliy tushunchani ilg'agan institutimizning yosh va serg'ayrat katta o'qituvchisi Xolmo'minov Mo'minmirzo Zokir o'g'li haqida go'zal so'z tasbehlarini tizmoqchimiz.

Endigina yigirma to'qqiz bahorni qarshilagan, o'z kasbiy salohiyati va metodikasi bilan institut jamoasining yuksak hurmat-e'tiboriga, e'tirofiga, eng asosiysi, "ustoz"lik rutbaga erishgan Mo'minmirzo, 1993-yil 27-sentabrda Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida dunyoga kelgan. U Xursandov Zokir ota va Nazarova Gulbahor onanining to'ng'ich farzandi. Bolalik chog'larida huquqshunos bo'lishni orzu qilgan. Biroq san'at va madaniyat sohasining jilvakor yog'dusi uni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga yetaklaydi. Orzular faslidagi yigitcha 2014–2018-yil mazkur institutning "Madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish" yo'nalishining bakalavr, 2018–2020-yil "Madaniyatshunoslik" mutaxassisligining magistratura bo'limida tahlil oladi.

Tashkilotchilik salohiyatiga ega Mo'minmirzo Xolmo'minov mehnat faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi Ijodiy birlashmalar va xalq ijodiyotini ilmiy-metodik ta'minlash bo'limi Xalq ijodiyotini ilmiy-metodik ta'minlash sho'basi bosh mutaxassisi (2018–2020) va mazkur tashkilotning Muzeylar, madaniyat va istirohat bog'lari, madaniyat markazlari faoliyatini ilmiy-metodik ta'minlash bo'limi boshlig'i, keyinchalik bosh mutaxassisi (2020–2021) kabi lavozimlarda faoliyat yuritadi. Pedagogik faoliyatini 2021-yil 6-sentabrdan O'zDSMI "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" kafedrasida boshlaydi.

Mo'minmirzo Xolmo'minov mehnatkashligi, izlanuvchanligi bilan jamoada hurmat qozondi. Kamtarligi, bilmidonligi bilan talabalarning mehr-muhabbatiga sazovor bo'ldi. Xalqda: "Ustoz ko'rмаган shogird har maqomga yo'rg'alari", degan hikmatli naq'l bor. Qahramonimiz ustozlari, dotsent Vahobjon Rustamov hamda siyosiy fanlar nomzodi, marhum Azamat Haydarovning o'git, pandu nasihat va maslahatlarini bilan hayot va ilm o'chog'ida anchayin toblandi. Rahmatli ustoz Azamat Haydarov shogirdi Mo'minmirzon o'zgacha yaxshi ko'rgan edi. Sevimli shogirdini: "Alisher Navoiyning eng ixlos qo'ygan shogirdi Mo'min Mirzo bo'lgan. Sen ham mening jondosh shogirdimsan", deya otalarcha mehr bilan alqab qo'yardi. Shogirdparvar ustoz Azamat Haydarov 2021-yil 64 yoshida bu foniy dunyonи tark etdi. O'tdi-ketdi demanglar, eslaganda tirikmiz, Yaxshi-yomon kunlarda madatkormiz, sherikmiz. Vujudimiz tuproqdir, gul ruhimiz havoda, Bizni eslaganlarning umri bo'lsin ziyorada.

O'qituvchining yuragi bir tarang tortilgan torga o'xshaydi. Bir shogirdining muvaffaqiyatidan chertilib, nafis bir kuyga aylanadi. Shukur, hozirgi kunda Mo'minmirzo Xolmo'minov "Ustoz" degan oliy maqomga erishdi. Shogirdlari doimo u haqida zavqlanib so'zlaydi. U mehmondo'st inson. Doshqozonda osh damlab, taomni talabalarga ularashib huzurlanadi. Bu ham odamiylik mulkidir. Talabalar: "Mo'minmirzo ustozimizning oshini yemapsiz, bu dunyoga kelmapsiz", deya yuzda tabassum bilan so'zlaydi.

Do'stim Mo'minmirzo: "Insondon qoladigani faqat yaxshilik. Yaxshilik qilishga ulgurib qolish kerak. Bu dunyo yaxshilik uchun yaralgan. Biz qilgan yaxshiliklarning mevasidan surriyotlarimiz bahramand bo'ladi", deydi suhbatimizning birida. U samimiy inson, mehribon farzand, g'amxo'ota, vafodor yor, bag'rikeng ustoz, dilkash do'st. Havas qilgudek oilaning ustuni. Ustozlik, olimlik – ulug' martaba. Mo'minmirzo Xolmo'minovga bu yo'lda: "xormang", deymiz. Pedagogik faoliyatida, ilmiy-ijodiy ishlardida ulkan zafarlar tilaymiz.

**Asilbek QOLQANATOV,
"Madaniyat va san'at menejmenti"
yo'nalishi 2-bosqich magistranti**

Ehtiram

E'zoz topgan san'atkori

Tabiat ba'zida insonlarga shu qadar yuksak saxovat, qobiliyat in'om etadiki, uning san'atidan ruhiy va ma'naviy ozuqa olgan har bir tinglovchi bunday yuksak iste'dodga nafaqat tahninlar aytadi, balki bu san'atkoring fidoyi muxlisiga aylanadi. O'zbek san'ati olamida shunday sozandalar borki, ularning xizmati tahnising sazovordir.

Ana shunday benazir ustozlarimizdan biri o'zining yorqin ijro uslubi, maktabi, milliy musiqa merosimizni xalq qalbiga muhrlashda barakali xizmat qilib kelayotgan ijodkor, sozanda, mohir bastakor, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti, "Shuhrat" medali, "El-yurt hurmati", "Mehnat shuhrati", "Buyuk xizmatlari uchun" ordenlari sohibi

Abduhoshim ISMOLOVDIR.

Bizga ma'lum darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ilmiy kitoblarda "madaniyat" tushunchasiga "yer haydash", "bola yetaklash", tarbiya va ma'rifat bilan bog'liq voqelik, deb ta'rif beriladi. Mohiyatan bunda xato yo'q, ammo u "madaniyat" so'zining emas, balki lotin tilidagi "culture" va rus tilidagi "kultura" so'zining etimologik talqinidir. Vaholanki, bizga "madaniyat" so'zining talqini zarur.



Viktor ALIMASOV,
falsafa fanlari
doktori, "San'at va
madaniyat menejmenti"
kafedrasining professori

MADANIYAT BIZNINGCHA...

Mahmud Qoshgariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida "madaniyat" so'zi va uning talqini uchramaydi. Hattoki, "Avesto" asarida ham "madaniyat" so'zi talqin etilmagan. Bu so'z buyuk shoir va mutafakkirimiz Alisher Navoiy asarlarida sharhlangan. Hazrat Navoiy asarida Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) Madina shahridan ekanliklari, "madina" so'zi "madaniyat" ma'nosini anglatishini yozadi. "Yuz na't angaki o'ldi fani Karam koni ul madaniy", ushbu talqindan ayon bo'ladiki, biz bugun qo'llayotgan "madaniyat" so'zining genezisi va etimologiyasi Madina, musulmonlar ibodat qiladigan joy, ya'ni shahar bilan bog'liqidir. Ma'lumki, Madina musulmonlar uchun nafaqat ibodat qiladigan joy, shu bilan birga ma'rifat, savdo-sotiq, xalqaro aloqalar markazi hamdir. Ushbu dunyoviy aloqalar diniy irfoniy ishlar bilan uyg'unlashib ketgani tufayli Madina islom olami va sivilizatsiyasining markazi bo'lib qolmoqda.

"Madaniyat" so'zining genezisi va etimologiyasi Madina shahri bilan bog'liq bo'lsa-da, ba'zi tadqiqotchilar bu so'zning talqinini lotincha va ruscha talqinlardan keltirib chiqaradilar. Rus tilidagi «культура» so'zi genezisini ham «культъ», ya'nisig'inish, e'tiqod manbal bilan bog'lashadi. Xullas, madaniyatning etimologik ma'nosi va ijtimoiy mohiyatini din, e'tiqod, sig'inish bilan bog'lash g'arb tadqiqotchilarida ham mavjud. Bu o'rinda I.Kant, Gegel, K.Yaspers, A.Toynti, O.Shpengler, V.Solovyov, N.Berdyyayev kabilarni misol keltirish mumkin. XIX-XX asrdagi ilmiy-teknik va ijtimoiy o'zgarishlar madaniyatni keng talqin qilishga olib keldi. Bugun madaniyatni insonning moddiy va ma'naviy faoliyat bilan bog'lab qarash shakllangan.

G'arb tadqiqotchilar "cultura" atamasini ilm-fanga XIX asrda olib kirishgan. Taniqli etnograf E.Taylor uni iste'molga kiritganida atigi 7 ta ta'rif borligini qayd etgan. 1950-yilga kelib, 150 ta ta'rif borligi aniqlanadi. Hozir uning 500 dan oshiq ta'rifi bor. Ularni jamlab o'z ta'rifimizni bildirsak, u quyidagicha ifodalananadi:

- *madaniyat uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi;*
- *madaniyat ilm-fan, maorif, ma'rifat, huquq, siyosat, maishiy xizmatlar ko'rsatish;*
- *madaniyat kishilar, xalqaro e'zozlaydigan qadriyatlar majmui;*
- *madaniyat kishining insoniy, axloqiy, ijtimoiy va ijodiy xislatlari;*
- *madaniyat xalqaro munosabatlar, integratsiya mahsuli, ilmiy-teknik yangiliklar, ta'lif-tarbiya demakdir.*

Dilga orom musiqa

Inson shaxsini, uning yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat va e'tibor, mustaqil Vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu o'rinda milliy musiqa san'ati yosh avlod ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda katta tarbiyaviy va badiiy estetik imkoniyatlarga ega.

O'quvchilarning badiiy ijodiyot sohasidagi iqtidorini ro'yogba chiqarishda, ularning estetik ehtiyojlarini qondirishda musiqa ta'limi alohida o'r'in egallaydi. Bunda o'quvchi yoshlar ijodiyot uylari, saroylari, o'lkashunoslik va sayyohlik markazlari, bolalar qo'g'irchoq va yosh tomoshabinlar teatrлari, sport va musiqa maktablari, yozgi oromgohlar va boshqa muassasalar tomonidan olib boriladigan tadbirlarni tilga olish mumkin. Biroq umumiy o'rta ta'lif maktablarida tashkil etilayotgan

musiqa ta'limi va fan to'garaklari ular orasida ahamiyatlari va samarali ekanligini unutmasligimiz lozim. Chunki, o'quvchilar umumiyo o'rta ta'lif maktablariga kelib, shu yerni o'zida tashkil etilgan musiqa to'garaklari qatnashishi ularga ancha qulayliklar yaratadi.

Respublikamizda musiqa pedagogikasi yo'nalishida izlanishlar olib borgan yetuk olimlarning ilmiy tadqiqotlari ham zamonaviy musiqa o'qituvchisining professional tayyorgarlik darajasiga qo'yilayotgan talablar ham

musiqa yoshlar o'rtasida targ'ib qilishda, uni yuksaltirishda muhim o'r'in egallaydi. Tajribalar shuni ko'satadiki, agar o'quvchi yoshlarda musiqa san'atining biron-bir turiga qiziqish paydo bo'lsa, u darslarga qiziqish bilan tayyorgarlik ko'ra boshlaydi, musiqa darslari bo'yichini kutadi, o'zini namoyon qilish, bilganlarini amalda ko'rsatish bilan ko'pchilik oldida g'ururlanish istagi bilan bog'liq kechinmalar paydo bo'ladi. Umuman olganda har bir fan ma'lum darajada boshqa fanlar bilan o'ziga xos tarzda va ko'rinishda bog'langan bo'ladiki, bu bog'lanish musiqa nazariy va amaliy ijrochilik bilan bog'liq o'qitish jarayonida ko'proq va yorqinroq namoyon bo'ladi. Shunday ekan, fanlar aloqadorligi va bog'liqligidan oqilonra va o'rinni foydalanish musiqa o'qituvchisidan barcha fanlar bo'yicha keng bilimlarga hamda musiqa san'atining bir qancha yo'nalishlaridan yetarli darajada boxabar, nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni talab qiladi. Musiqa darslarini fanlar

Oq nilufarlar yurtida

Kitob bo'sh vaqt bo'lganda mutolaa qilinmaydi, kitobni o'qish uchun alohida vaqt ajratmoq lozim. Institutda ta'lif olish bilan bir qatorda doimiy va davomli ravishda kitob mutolaa qilar ekanman, menga kuchli ta'sir qilgan kitoblardan biri, bu – Grigoriy Petrovning "Oq nilufarlar yurtida" kitobi bo'ldi. Bu kitob "Finlandiyaning qurilishi va botqoqliklar o'lkasidan oq nilufarlar o'lkasiga aylanganini anglatadi. Bunda bir qancha ziyoli insonlar xizmati bilan ta'lif tizimini o'zgartirish orqali bir millatning uyg'onishi va hozirgi taraqqiyotga erishishi jonli tasvirlab berilgan", – deydi Grigoriy Petrov. Ha, bu kitob xalqning uxlab yotgan aql-idroki, jaholat va bilimsizlik kuchayib borayotgan, aholi va davlat qashshoqlashayotgan, axloqiy, intellektual va iqtisodiy jihatdan tanazzullikka qarab ketayotgan Finlandiya davlatining ibrat va taraqqiyotining yuksak cho'qqisiga erishgani haqida so'z boradi.



Aziza SAIDMURODOVA,
"Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish" ta'lif
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

xalq doimo qo'llab-quvvatlaydi. U qisqa davr ichida yuksak tafakkuri bilan baxtga erishadi. Finlandiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining baxt indeksidagi eng baxtli davlatlar qatoridan joy olgan. Snelman din odamlari va ruhoniylar bilan bo'lgan yig'ilishlarda nutq so'zlar ekan:

"Xudo odamlarning qalbida yo'qolib bormoqda va o'lmoqda. Dinsizlik ma'naviy qashshoq va kasal bir ruhiy holat, shuningdek, xalqning ma'naviy qadriyatları yo'qligi belgisidir. Buning oqibatida odamlar hayvonlar hissiyotlari asiriga aylanadi, ma'naviyatini yo'qotadi, axloqsizlik, egoizm, o'g'rilik va hissiy buzilishlar boshlanadi. Bundan dahshatli yana nima bo'lishi mumkin?! Xudoni o'zingizdan, qalbingizdan qidiring! Odamlarni Xudoga olib boradigan yo'lg'a boshlang! Ruh va mazmundan xoli stereotipik e'tiqod formulalarini emas, balki Xudoga bo'lgan ishonchini bering", – deydi faylasuf.

Snelman boshchiligidagi harbiylarga katta e'tibor qaratiladi. Mamlakatda sportga bo'lgan e'tibor kuchaytirilib, yoshlarni ham ma'nani, ham jismonan yetuk bo'lishiga undaydi. Finlandiyaliklar o'z mehnati bilan har sohada muvaffaqiyatga erishadi. Finlandiyada o'qituvchilarga kelajak yo'boshchisi sifatida qaraladi. "Oq nilufarlar yurtida" asari men bilmagan bir davlatning bor qirralarini ochib berdi. Mamlakatda muhit, imkoniyatlar, ta'limumning o'rni yuqori bo'lmog'i lozim. Bu kitobni mutolaa qilmoqlikni sizlarga ham tavsiya etaman.



Baxtiyor SAMIYEV,
"Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil etish va
boshqarish" ta'lif yo'nalishi
1-bosqich talabasi

aro aloqadorlikdan tashkil etish, ilg'or innovatsion texnologiyalaridan, ilg'or ish tajribalardan foydalanish, yangi va samarali ish usul va shakllarini ijod etish va qo'llash davr talabidir.



TO'YLARIMIZ - O'YLARIMIZ

To'y – xalqimizning nihoyatda e'zozlagan, insonlar qalbini quvonchga to'ldiradigan, ularga shodlik, xursandchilik bag'ishlaydigan marosim hisoblanadi. Tarixga nazar tashlasak, azal-avvaldan o'zbegimning to'y va marosimlar bilan bog'liq o'ziga xos go'zal urf-odat va an'analar shakllangan. Ming afsuski, bugungi kunda to'y va marosimlarimiz umummillat muammoga aylanib bormoqda. To'ylardagi haddan ziyod isrofgarchilik, dabdababozlik, shuhratparastlik kabi illatlar kecha yoki bugun paydo bo'lib qolmagan. Bu muammo haqida ma'rifatparvarlar asr avval bong urgan. Natija esa...

Ayrim kimsalar to'y orzu-havasini islam dini bilan bog'liq, deb biladi. Lekin buyuk ajdodimiz Imom al-Buxoriy hazratlari Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning "Nikoh to'yida bir kun taom berish sunnat, ikki kun taom berish isrofgarchilik, uch kun taom berish riyokorlikdir", degan so'zlarini eng sahih hadis sifatida e'tirof etadi. Bundan anglashiladiki, milodiy VII asrda ham to'y o'tkazishda ortiqcha sarf-xarajat, isrofgarchiliklar mavjud bo'lgan. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) bu illatlardan xalos bo'lismi islomga bog'lab da'vet etganlar. Muqaddas Qur'oni karimning Isro surasi 26-27-oyatlarda esa "...Isrofgarchilikka mutlaq yo'l qo'y mang! Chunki, isrofgarlar shaytonning birodalaridir. Shayton esa, Parvadigorga nisbatan o'ta noshukur edi", deyiladi.

Yurtimiz tarixiga nazar tashlasak, XIX asr oxiri XX asr boshlarida, aniqrog'i, 1911-yil mart oyida Buxoro amiri Amir Olimxon "Juda isrofli to'ylarni tugatish to'g'risida" farmon chiqqargan. Unga ko'ra, to'ylarda olti-yetti xil taom tayyorlatgan sohiblarga 75 darra urish jazosi, to'ylarda uloq choptirgan va poyga uyuhsitirganlarga o'lim jazosi tayinlangan.

1916-yil 5-iyunda esa to'ylarga oid yana bir farmon imzolandi. Shu davrlarda millatimizning haqiqiy fidoyilar bo'lgan jadidlar tomonidan milliy matbuot sahifalarida to'ylarga oid bir qancha tanqidiy maqolalar chop etilgan. Xususan, "Turkiston viloyatining gazeti",

"Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" kabi gazetalarda Mahmudxo'ja Behbudiyning "Bizni kemiruvchi illatlar", "A'molimiz yoinki murodimiz" deb nomlangan maqolalari, Tursun Yunus Muhammadiyning "To'y haqida", Mirzo qorining "Aroqqa tikilmish aqchalar" sarlavhani tanqidiy maqolalari chop etiladi. Ushbu maqolalarda dab-dabali to'y-ma'rakalar xalqning jaholat botqog'iga botayotganini asosiy sababi, deb qayd etiladi. "Sadoi Farg'ona" gazetasining sahifalarida, bunday to'y va ma'rakalar o'tkazish ilmsizlik natijasi ekanligi, dunyoning hech bir millatida bunday hol uchramasligi, dabdababozlik Qur'oni karim va Hadisi sharifga mutlaq zid ekanligi ta'kidlanadi.

Manbalarda qayd etilishicha, Mahmudxo'ja Behbudiy o'g'lining xatna to'yini ixcham shaklda o'tkazib, o'sha xarajat o'rniga Turkiya va Rossiya davlatlaridan kitoblar xarid qilib, ularni Samarqanddagi kutubxonaga topshiradi. Shuningdek, Munavvar Alifikor ismli shaxs o'g'lining xatna to'yidagi ortiqcha xarajatlar o'rniga jadid maktabi qudiradi. Turkiston jadidlari faqat matbuot orqali emas, balki teatr sahnasida ham ushbu muammolarni ko'rsatishga harakat qilgan. Xususan, 1915-yilda Toshkent va Namangan ko'ngilli havaskorlar tarafidan Hoji Muinning "To'y" fojaviy pyesasi sahnalashtirilgan. To'ylar bilan bog'liq bugungi jarayon, yuz yil oldingi holatdan battar bo'lsa bo'ldiki, ammo o'zgarmayabdi. Mazkur muammo bir necha marotaba ommaviy axborot vositalarida tanqidiy yoritildi. Ammo natija ijobjiy emas.

Ahamiyatlisi shundaki, zamonaviy dunyoning birorta mamlakatida davlat rahbari yoki parlamenti tomonidan to'y-hashamlar to'g'risida farmon yoki qaror chiqarilmagan. Bizda esa 1998-yil 28-oktabrda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning mamlakatimizda to'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka-marosimlar, marhumlar xotirasiga bag'ishlangan tadbirdilar o'tkazishni tartibga solish borasida farmoni e'lon qilindi. Bu farmonda to'ylar, tantanalar, marosimlarni o'tkazishda shuhratparastlik, dabdababozlik, isrofgarchilikka berilib, el-yurt odatlari va an'analarini mensimaslik, o'zini ko'z-ko'z qilish, atrofda yashayotgan insonlarning hol-ahvolini inobatga olmaslik kabi asoratlarga barham berish masalasiga e'tibor qaratilgan edi. Biroq farmonda ko'zlangan maqsad samarali natija bermadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Kengashi tomonidan "To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" qo'shma qarori qabul qilindi. Qaror asosida "To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish to'g'risida"gi nizom ishlab chiqildi. Qo'shma qaror va nizomga muvofiq joylarda ma'rakalarni ortiqcha isrofgarchiliklarsiz, milliy qadriyatlarimizga mos tarzda o'tkazish yo'nga qo'yildi. To'y-hashamlarni belgilangan tarzda, 200-250 odamdan ko'p bo'lmagan, san'atkorlar ishtiroti ikki guruhdan oshmagan, dabdababozlik, isrofgarchiliklarga, ortiqcha hashamadorlik, pul sochish, shuhratparastlik kabi illatlarga yo'l qo'yagan holda o'tkazish tadbirdilari 2020-yilning 1-yanvaridan kuchga kirishi belgilandi. Ammo natija...

To'ylardagi isrofgarchilik, maishatbozlik va bazmbozlik kabi bema'nini odatlar birdaniga paydo bo'lgan emas.



Ziyodulla ISOQOV,
tarix fanlari nomzodi,
"Ijtimoiy-gumanitar
fanlar" kafedrasidagi dotsenti

Buni yuqorida keltirib o'tilgan misollar ham ko'rsatib turibdi. Ular yillar, asrlar davomida yig'ilib illatga aylangan. Bu illatlar esa har bir davrda shakl-shamoyilini, qiyofasini o'zgartirgan holda o'zini turli ko'rinishlarda namoyon qilib turadi. Masalan, avvallari xorazmlik ota to'rt o'g'lini uylantirish uchun kelin tomonga qalin puli topib berolmay qiynalgan bo'lsa, bugun toshkentlik ota to'rt qizini turmushga chiqarish uchun bor sarmoyasidan ajralmoqda. Vodiyning ba'zi bir kuyovlari esa qirq kun mobaynida kelin tomonidan har kun keladigan noz-ne'matlar va ovqatlarni qabul qilish bilan band. To'ylar, marosimlar avvalgidek uyldarda emas, million-million so'mlar evaziga muhtasham to'yxona, restoranlarda dabdabali bilan o'tkazilmoqda. To'ylarga bir-ikkita emas, balki o'nlab san'atkorlar xizmatga chaqirilmoqda. San'atkorlarning ko'p bo'lishi esa to'y egasining obro'si emish. Ana sizga Imom al-Buxoriy va Bahouddin Naqshbandlar avlodining bugungi tafakkuri.

Xulosa o'rnda shuni aytamizki, bu illatlarning barchasi ilmsizlik oqibatidir. Ming afsuski, shu kecha-kunduzda ham qanchadan qancha yurdoshlarimiz o'g'il-qizlariga shu kabi bema'nii to'yni o'tkazish va uning uchun mablag' yig'ish maqsadida, musofir yurtlarda sarson-sargardon. Qachon yoshlарimiz haqiqiy baxt kaliti ilm va bilmida ekanligini anglab yetadi? Bizningcha, mazkur muammolarni hal etish uchun birinchi navbatda boshqalarga o'rnak bo'ladigan yoshlар faoliyatini ommaviy axborot vositalarida kengroq yoritish zarur. Oynai jahon va teatr sahnasida kamxarj to'ylarga bag'ishlangan ko'rsatuv, spektakllarni targ'ib qilish kerak.

Yuqorida keltirilgan fikrlarimiz, takliflarimiz balki natija bermas, balki bu illatlar yana yuz yil xalqimizga hamroh bo'lar, ne bo'lgan taqdirda ham shu xalqning non-u tuzini totib ulg'aygan bir inson sifatida davr muammosini baholi qudrat qog'ozga tushirdik.

Bir shingil mehr...

Biz har kuni kundalik hayotimizdagи shirin muammolar bilan yashaymiz. Uni qilay, buni qilay, bunga ulguray, deb vaqtimiz ummonidan ancha yutqazganimizni bilmay qolamiz. Vaholanki, biz ancha narsani boy beramiz. Avvalambor, yaqinlar diydoridan uzoqlashamiz. Xo'sh, biz nimalarni topdig-u, nimalarni yutqazdik? Nahotki, biz yon-atrofimizga shunchalik befarqmiz. Kundalik yumushlarga o'ralashib, mehr-oqibatni unutib qo'ymadikmi? Haqiqat achchiq bo'ladi. O'zimiz bilan o'zimiz ovora bo'lib yaqinlarimizni eslamay qo'yidik, hattoki, vaqtini bahonalar qilib xabar olmadik. Shu orqali oqibatimiz, mehrimiz, va madaniyatimiz oqsoqlanish darjasiga bordi.

Avallari yaqinlar, qarindoshlar, yor-u birodarlar bir dasturxon atrofida jam bo'lib, diyordi shirin bilar edi. Keksa-yu bemorlarning holidan xabar olar edi. Hozir-chi?! Hattoki, haftada bir qo'ng'iroq qilib, hol-ahvol so'ralmayapti. Ayniqsa, ota-onasi diyordini ortga surish achinarli holat. Azizlar, biz farzandlarni oq yuvib-oq taragan, orzu-havaslarini bizga tikkan ota-onamizni tirklik chog'ida qadriga yetaylik. Davlatimiz va boyligimiz bo'lgan ota-onamizni asrab-avaylaylik. Ota-onasi va jigarlar holidan xabar olish, ularga muruvvat ko'rsatish dinimizda ham buyurilgan.

Bir-birimizga mehr-oqibatli bo'laylik!



Ahrorbek INOMJONOV,
"Madaniyat va san'at sohasi menejmenti"
ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Pariro'y

Nomozshom mahali edi. Sokinlik bilan bulutli osmonda yulduzlar ham ko'rina boshladi. Mo'jazgina xonada chamasi yigirma yoshlari atrofida bir pariro'y oynaga qarab, uzun sochlarini mayin taraganicha shirin xayollar og'ushida o'tirardi. Deraza oynasidan oymomoning yoqimli shu'lasi aks etsa, ayvon toshoynasidan ikki yonog'i hayajondan qizargan, qosh-ko'zi qop-qora sarviqomat ko'rinardi. Oyna yonida esa yori bilan tushgan ilk kechadagi surati turardi. Qiz suratni qo'liga olib termular ekan, qalbida jufti haloliga nisbatan iliq sog'inch tuyg'usi paydo bo'ldi. Yori bilan birga o'tkazgan baxtli onlari, hayajonli daqiqalari xayolidan o'ta boshladi.

To'yłari bo'lgan kun. Kun qoray-gach esa o'zi sevgan suyukli yori bilan chimildiqdagi his-tuyg'ulari, to'ya kelgan mehmonlarning shodligi-yu, kuyov jo'ralarning yor-yor sadolariga tushgan raqsulari, xursandchilikdan jaranglagan qiyqiriq ovozlari qulog'iga chalinardi. Chimildiq. Naqadar pokiza, naqadar ulug', yaxshi niyatlar, orzu-havaslar jamlangan muqaddas oshiyon. Atrofi esa bejirim ishlangan kashtalar va momolarimizdan urf-odat bo'lib meros qolgan shoh-u so'zanalar bilan boyitilgan. Nozik did bilan taxlangan atlas ko'rpa-yu ko'rpachalar, quroqli yostiqchalar ko'ziga ko'rinardi. Kichikroq qilib dasturxon tuzatilgan. An'anaga ko'ra asal, novvot choy, yupqa, moshxo'rda va yana bir qancha shinrliklar qo'yilgan. Aytishlaricha, har bir yegulikning xosiyati bo'larkan. Yorining unga qarab termulib turganligi, o'zi esa o'zbek qizlariga xos bo'lgan sharqona tortinchoqlik, qo'llarining dir-dir titrog'i, xullas, yoqimli o'tmish xayolini butkul olib qochgan edi.

O'sha vaqt birdan deraza taqillay boshladi. Bemavrid eshitilgan ovoz qizni cho'chitib yubordi. Xayollari ham chalkashib ketdi. Allamahalda kim kelgan ekan, deya xavotir bilan eshikni ochdi. Ming afsus va nadomatlar bo'lsinki, xavotiri noo'rin bo'lmadi. Eshik ortida qoraxat tashuvchi yigit, ko'z ochib ko'rgan umr yo'ldoshining harbiylik libosini qo'lida tutgancha turardi: "Eringiz urushda qahramonlarcha halok bo'ldi. Kiyimlarini olib kelgandim", – dedi yigit. Hayotining eng gullagan pallasida beva qolish qanchalar achinarli va dahshatli holat. Kelinchak erining libosini qo'liga oldi. Yosh to'la ko'zları bir nuqtaga qadalgan. Qalbini esa dard, alam, qayg'u, og'ir musibat qurshadi. Jon taslim qilish shunchalar oson ekan-da. Ayol Xudoga nola qila boshladi: Ey, Yaratgan Egam! Nima uchun?! Nima uchun?! Menga bunday dahshatli qismatni ravo ko'rding. Aybim nima edi?! Ilyonimga qarshi bordimmi? Kimmingdir dilini og'ritib qo'ydimmi?



Nozima ULUG'OVA,
O'zDSMI Nukus filiali
"Sahna va ekran san'ati
dramaturgiyasi" ta'lim
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Sof muhabbatga xiyonat qildimmi?
Hech birida aybdor emasdum-ku!

Pariro'y qo'liga qaychini oladi va erining o'llimiga sababchi bo'lgan zolimlardan o'ch olish maqsadida, ayol nazokatining ifori bo'lgan sochlarini qirqa boshladi. Har kesganda, ayolga zeb berib turgan ziynati xiralashgandek edi. Qop-qora sochlari yer bilan bitta bo'ldi. Ikki saat oldin yuragida qanday iliq tuyg'ular bo'lsa, taqdiriga bitilgan ayanchli qismati alamli nafratga aylandi. Marhum yorining harbiy formasini egniga kiyib ayolning o'kinch to'la qalbi eng kuchli jasorat ekanini ifoda etdi. Uning yelkasini bu haqiqatni isbotlashdek sharafli vazifa, ko'nglini esa mas'uliyatli burch qurshadi.

Berahm...

O'sha vaqtlar chamasi o'n uch yosh edim. Ayni kuz, ammo atrofda qish ayozi daydirdi. Ko'chada men kabi sovuq sezmas, o'yin-kulgini sevadigan bolalardan tashqari, qolganlar uyi-uyida o'tirishardi. Har galgidek horib-charchab uyya qaytdim.

Darvoza tirqishidan ichkariga mo'raladim, oyim avyonda jahli chiqqancha singlimga baqirar, qo'lida tut novdasidan xivchin, aftidan meni jazolash uchun bo'lsa kerak. Birdaniga tanamdagagi og'riqlar qo'zg'aldi. Devor chetiga o'tib, oyim jahlidan tushishini kuta boshladim. Bir payt qo'shnimiz Rahim aka hovliqib keldi. Bor gapni mendan bilgach, darvozadan hovliga kirdi-da, zum o'tmay ketmon orqalab chiqdi. Xayolimga yeldek urilgan fikrdan quvondim, "ketmonga boruvdim, ushlanib qoldim", deyman oyimga. Rahim akaga ergashdim.

Rahim aka to'g'ri og'ilxona tarafga yetakladi. Paksadevorga suyangan katak qarshisiga bordik. U ketmonni devorga tirab yeng shimardi, it bolalayapti katak ichida. Kuchukchalar ag'anab o'ynar, bir-birini tishlab xurar, yalab-yulqayotgan onasi atrofida irg'ishlardi. Rahim aka shundoq bo'sh xaltani oldi. So'ng u itni katagidan sudrab chiqardi va kuchuklarni tekshirib qopga sola boshladi.

Ona it katak atrofida yer-u ko'kka sig'may qandaydir noxushlikni sezganday oyog'i bilan yer titib g'ingshirdi. – Bu kuchukvachchalarni nima qilishni yaxshi bilaman, – dedi pishillab qo'shnikim. Biz daraxtzor oralab Rahim akani dalasi tomon jo'nadik. Orqamizdan to dalaga yetgunimizcha olapar ergashdi. Rahim aka unga tosh o'qladi. – Olapar... tur... yo'qol... yo'qol!

Dalalar shudgorlanganligi bois loyga oyoq botib, odam yurishga qynalardi. Tomchilayotgan yomg'ir esa dard ustiga dard. Biz zo'rg'a jarlikka yaqinlashdik. Jarlik yoqasida chuqr o'ralar hosil bo'lgan, jar chetini sel o'pirgandi.

– Ketmon shart emas ekan, – dedi Rahim aka kulib. Shundagina menga hali-hanuz sir bo'lib kelayotgan muammo yechimi ko'rindi. Demak, u kuchukchalarini tiriklayin ko'mmoqchi! Men umuman ilojsiz edim. O'ylaganimdek, Rahim aka kuchukchalarini o'ruga tashlay boshladi. Ketmonni uloqtirib shartta uning qo'liga yopishdim. – O'zim boqaman, menga bering! – Yig'lab yalindim, foydasi bo'lmadi. U meni siltab tashladi. O'ra ichida loy va balchiqqa qorishgan kuchukchalar jon talashib g'ingshiy boshladi. Ko'z oldimda sodir bo'lgan fojani tasvirlashga til ojiz...

Shavkat BOZORBOYEV,
"Estrada va ommaviy tomoshalar rejissorligi"
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi



Qishloqqa qanday qaytdik, bilmayman. Chorasizlik va ixtirob, yana qandaydir tushunarsiz tuyg'ular ortidan paydo bo'lgan kuch meni qynar, negadir ko'zimdan timmay yosh oqardi. "Qaniydi ilohiy bir quvvat bo'lsa-yu, boplab uning dodini bersam!" deb alam bilan o'ylardim.

Rahim aka holatimni sezdi shekilli, meni yupatishga urindi. – E-ey, og'aynichalish, nega yig'laysan? O'g'il bolasan-ku! Bu kuchukvachchalarning kimga keragi bor. Zotdor it bo'lganda boshqa gap edi...

Bir ahvolda uyla qaytgan bo'lsam kerak, oyim jazolash o'rniqa atrofimda parvona bo'lib qoldi. Oyim harchand qattiqqo'l bo'lmisin, lekin erka o'g'lining ko'zyoshlariga chidab turolmadi. Qovoqlarim shishib ketganini ko'rgach, boyagi vajohatidan asar ham qolmadi. Ko'chadagi gapni uyla olib kelmasligimni bilsa-da, gapga tutib nima bo'lganini so'radi. Ammo miq etmadim. Isitmam chiqib yotib qoldim.

Dori-darmon ta'sirida ko'zim ilinganini ham sezmapman... Uydagi shivir-shivirdan uyg'onib ketdim. Otam va onam past ovozda suhbatlashardi. – Bechoraga qiyin bo'ldi-da... Bir o'g'ilga zor edi-ya, yana qiz ko'ribdi. Rahimning ahvoli chatoq!

Bildimki, Rahim aka yana qizli bo'lgan. To'rtinchchi qiz! Har gal qishloqda birov farzandli bo'lsa sevinardik. Boisi, bazm-u ziyoftadan biz bolalar ham chetda qolmasdik-da. Lekin bu safar ko'nglimda hech bir shodlik yo'q edi... Ko'z oldimda Rahim aka loyga cho'ktirgan kuchukchalar jon azobida o'lim bilan olishardi. Bu voqeja bir umrga qalbimda bitmas jarohat bo'lib qoldi. O'sha voqeanning asorati har gal Rahim akaning xotini qiz tuqqanida yangilanaveradi...

MITTI HIKOYALAR

O'G'Rİ

Yo'qolgan pullarimni izlaysam hech menga gapirgisi kelmaydigan do'stim qaltiroq ovozda:
– Men ham ko'rganim yo'q, – dedi yangi shimining cho'ntaklarini ko'rsatib.

QUSH UYASIDA KO'RGANINI QILADI

O'g'limning o'qituvchisi bugun yana menga shikoyat qildi.

– O'g'lingiz darsimda so'kinib o'tiradi, – deb.
– Bu padar la'nati bola qayoqdan o'rganyapti ekan-a-a, so'kinishni...

Shahzodbek QURBONOV,
"Estrada va ommaviy tomoshalar
rejissorligi" ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

RO'ZADOR

Tutgan ro'zalarimizni Yaratgan egam o'z dargohida qabul qilsin, qani oldik.

NIYAT

Yo Robbim, halolindan rizqlantirgin, – deya joynamozini yigishtirdi va qimorxonaga yo'l oldi.

MEHR KO'ZLARI

Uning ko'zları darvoza ortida mehr ila boqib turgan bolakaylargacha tushdi. Darvoza peshtaxtasida esa "Xush kelibsiz! Mehribonlik uyiga" deb yozilgan edi.

AJOYIB XAYOLPARAST

Yigitcha o'zining Rolls-Royse mashinasida shaxsiy haydovchisi bilan Nyu-York ko'chalarini kezardi... Shu payt birdaniga otasi uni nonushtaga uyg'otdi...

Davlatbek ALISHEV,
"Estrada va ommaviy tomoshalar
rejissorligi" ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

VA'DA

– Onajon, kuyunmang, men hali ko'p pul ixtirob qaytaman. Xudo xohlasa, o'zim sizni yelkamda ko'tarib hajga olib boraman, onajon!

U keldi. Va'dasini bajarib yelkasiga mindirib olib bordi ham. Faqat hajga emas...!

Mahmud CHORIYEV,
"Estrada va ommaviy tomoshalar
rejissorligi" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich
talabasi

AMAL

Meni bu dunyoga kelib-ketishim sayohatchining soyada biroz dam olib, yana yo'lini davom ettirishidek gap. Lekin bu vaqt ichida qilgan amalim meni qaysi yo'lda sayohat qilishimga kafolatdir.

NONKO'R

– Marhumning qarzini kim oladi?
Marhumning qarzini kim o'z bo'yniga oladi?!

Otangning qarzini olmaysanmi?

– U kam bor-ku.
– Otangning qarzini olmaysanmi?
– Akam bor-ku.
– Men, – dedi safdan chetda turgan marhumning qizi.

ABLAH

Ellik qavatlari binoning tomidan sakrashga qaror qildik. Qani, ketdi-i-k... bir, ikki, uch. U sakradi. Men uni tepadan kulimsirab tomosha qillardim. O'ttizinchchi qavatga yetganda uning parashyuti ochildi.

Ruslan RUSTAMOV,
"Estrada va ommaviy tomoshalar
rejissorligi" ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Vatanim, O'zbekiston!

Ona Vatanimsan – O'zbekiston,
Senga fido bo'lsin tanamdag'i jon.
Seni ulug'laydi bag'ringdagi har inson,
Go'zal chiroying dunyoga bo'lsin doston.
Vatanim O'zbekiston, Vatanim O'zbekiston!

Azim unutilmas tarixing bor,
Senga nazar qilgan Parvardigor.
Boshingda Humo qushing bor,
Har yoring bog'u bo'ston.
Vatanim O'zbekiston, Vatanim O'zbekiston!

al-Buxoriy, at-Termizi Vatanisan,
Qadim o'tgan polvonlarning jon-tanisan.
Sendan kechgan insonlarning armonisan,
Yurtboshim doim bo'lsin so'g'-omon.
Vatanim O'zbekiston, Vatanim O'zbekiston!

Bordir dunyoga mashhur polvonlaring,
Sportsevar jasur-u mard o'g'lolnaring.
Ushhalmoqda endi sening armonlaring,
Bizdek o'g'lolnaringga sen o'zing qalqon.
Vatanim O'zbekiston, Vatanim O'zbekiston!

Barg'ringda yotibdi ne-ne insonlar,
Sen uchun jon bergan yuragi qonlar.
Endi olmoqda ular orom,
Ularga shohid bu keng osmon.
Vatanim O'zbekiston, Vatanim O'zbekiston!

Shoirlaring g'azalida sening noming,
Bulbullarning xonishida sharaf-shoning.
Doim yorug' bo'lsin bu keng osmoning,
Seni tan oldi endi keng jahon.
Vatanim O'zbekiston, Vatanim O'zbekiston!



Amriddin SHOMURODOV,
"Madaniyat va san'at menejmenti"
ta'lif yo'naliishi sirtqi
2-bosqich talabasi

Shaharlaring kengayib ochmoqda chiroy,
Sening xarobang ham men uchun saroy.
Men uchun e'zozli bo'lasan har on,
Vatanim O'zbekiston, Vatanim O'zbekiston!

Islom dini poytaxti Toshkent,
Buyuk ulug' allomalar yurti Samarcand.
Juda qadim tarixga ega Xorazm,
Tuproqlarini bosgan qanchadan qancha karvon.
Vatanim O'zbekiston, Vatanim O'zbekiston!



Nizomiddin ESHMURODOV,
"Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil etish
va boshqarish" yo'naliishi
3-bosqich talabasi

Onam kutmoqda

Ko'nglimni so'ramang, menda ko'ngil yo'q,
Sog'insam yuragim alam yutmoqda.
Yo'limga intizor, ko'zi to'rt bo'lib,
Meni olislarda onam kutmoqda.

Kelsa bir dasturxon yozayin, deya
Yo'liga jonimni osayin, deya
Bolamni bag'rimga bosayin, deya
Meni olislarda onam kutmoqda.

Omadim yuz burib ketmasa hamki,
Hatto do'st qo'limdan tutmasa hamki,
Hech kimsa sog'inib kutmasa hamki,
Meni olislarda onam kutmoqda.

Farzand bo'lolmadim koriga yarab,
Bir she'r yozoldimmi ko'ngliga qarab?
Yo'l berigin yoniga borayin, yo Rab,
Meni olislarda onam kutmoqda.

Validam bor ekan, mening ko'nglim to'q,
G'animlar ortimdan otolmagay o'q,
Faqat meni o'ylab halovati yo'q,
Meni olislarda onam kutmoqda.

Dilimni onamga yormasam bo'lmas,
Toshkentdan sovg'alar olmasam bo'lmas,
Bugun men yoniga bormasam bo'lmas,
Meni olislarda onam kutmoqda.

Xayolimdag'i ul go'zal

Qarang, hayot charxi tez aylanyabdi,
Shunga qarab qizlar ham turlanyabdi.
Ko'nglimdag'i so'zni aytay sizga,
Xayolimdag'i ul go'zal topilmayabdi.

So'rang, xayolimdag'i ul go'zalni,
Labi bol g'unchamu, yo yuzi qirmiz.
Aytsam gar hech bir qiz achchiqlanmasin,
Yonimdamas, xayolimda o'shal go'zal qiz.

Men sevgan qiz ko'zimga tik qarolmaydi,
U menga qarshi bir so'z aytolmaydi.
Malak siymo vafodan kiyagan libos,
Ko'nglim sokin ul o'zligin yo'qotmaydi.

Unga moda begona milliyligi bor,
Har xil shim kiyishga qiladi or.
Naqshin yuzi buloqdek toza,
Parining Xudo bergen go'zalligi bor.

Go'zal qalbi shaffof suv misol,
Yurmaydi zinhor shayton yo'liga.
Hayotga qaraydi teran nigoh-la,
Mehr nurin taralar gul chehrasidan.

Unga ayfon begona ishoning do'stlar,
Instagramu telegram bilmaydi zinhor.
Besh mahal ibodatin qilmaydi qazo,
Shuning uchun Yaratgan asraydi uni.



Dil hasrati

Tushda uzildi jon va uchdi ruhim,
Tanam to'shak uzra jim, muzlab goldi.
Farishtalar kelib yetakladi jim,
Men-chi boqiy dunyo sari yo'l oldim.

Yo'l-yo'lakay o'tdim do'zax yonidan,
O't-olov har tomon cho'g'lar otardi.
Azobli asnolar o'tib yonidan,
Jon qabr ichida yonib yotardi.

Ruhim uchar edi ko'kka, osmonga,
Farishtalar bo'lib jon yo'l doshlari.
Yaratganga shukur aytgan vaqtimda,
Uil jannat hidrlari kela boshladi.

Alpomishdek ajdodlaring o'tgan senda,
Shiroq yanglig' polvonlaring o'tgan senda.
Bag'rikeng-u mehmondo'stdir ona xalqim,
Ham shirinso'z insonlaring o'tgan senda.
Sendan kechganlar bo'lsin darbadar-sarson,
Vatanim O'zbekiston, Vatanim O'zbekiston!

Hazat Boburlar sonda tug'ilgan,
Ullug'beku Temurlar sonda tug'ilgan.
Bobolarim tuprog'i bag'ringda ko'milgan,
Shoirlaringga ajodolar beradi ilhom.
Vatanim O'zbekiston, Vatanim O'zbekiston!

Qadim binolaring arklarining bordir,
Zamonaviy beqiyos parklaring bordir.
Sarhadlarinda askarlar doim hushyordir,
Askarlar sen uchun tayyor bermoqqa jon.
Vatanim O'zbekiston, Vatanim O'zbekiston!

Endi mustaqilsan ozodsan xalqim,
Endi bo'ladi bag'ring ham butun.
Qalam oldim seni madh etmoq uchun,
Qog'ozga soldim dildagi baytim.
Vatanim O'zbekiston, Vatanim O'zbekiston!

O'tayotgan har bir kuning bayram bo'lsin,
Yosh avlodlaring bag'ringda o'ynab-kulsin.
Ey, buyuk yurt! Kelajaging porloq bo'lsin,
Shudir mening senga ezgu tilagim.
Vatanim O'zbekiston, Vatanim O'zbekiston!




Husan ISLOMOV,
"Folklor va etnografiya" ta'lif
yo'naliishi 1-bosqich talabasi

Bu so'zni eshitib qolmang hayratda,
Aytarlarki, bunday qizni bo'lmaydi topib.
Bu so'zni eshitgan chog' yondi yuragim,
Yana deydi, vaqt orqaga qarab yurmaydi.

Ayting, do'stlar bu so'zga chidayin qanday,
Yo yig'laymu, yo dardimni yutay ichimga.
Xayolimdag'i ul go'zal bo'lmasa ro'yo,
Bu dunyodan mayli, uylanmay o'tay.

Bu so'zlar hech bir qizga og'ir botmasin,
Xafa bo'lib menga qarg'ish toshin otmasin.
Ko'nglimdag'i shu go'zal bor bo'lsa gar,
Parvardigor ul go'zalni menga asrasin.



E'zoza KARIMOVA,
"Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil etish va
boshqarish" ta'lif yo'naliishi
3-bosqich talabasi


Xalqqa sodiq o'g'lolnlar

Farzanding sog'inchik kundan kun oshar,
Yoring ko'zyoshlarin ichga yutmoqda.
Yo'lingga termulib bunda onang zor,
Oilang g'urur ila seni kutmoqda.

"Askar-askar" o'ynar ko'chada ukang,
"Men serjantman" der ko'ksini kerib.
Senga ishonch bilan boqar, bu Vatan!
Ey askar, asragin joningni berib.

Sensan Temurbekka, Boburga qondosh,
Buyuk Shiroqlarning shijoati bor.
Alpomishlar qoni oqadi senda,
Seni allalagan shu ulug'diyor.

Demak, sadoqat bo'lsin shioring,
Vatan deya ursin ko'ksingda yurak.
Ortingda duoda turar do'st-yoring,
Xalqingga sen kabi o'g'lolnlar kerak!



Aslbek JAMOLOV,
"Dramatik teatr va kino aktyorligi"
ta'lif yo'naliishi
2-bosqich talabasi

TO'YSIZ TOMOSHA

BIR PARDА, TO'RT KO'RINISHLI KOMEDIYA

QATNASHUVCHILAR:

1. **Norxo'roz** – tovuqxona boshlig'i, 54 yosh
2. **Nortoji** – Norxo'rozning xotini, 49 yosh
3. **Norqo'chqor** – Norxo'rozning yolg'iz (bekorchi) o'g'li, 28 yosh
4. **To'xliboy Qo'yboqarov** – Norxo'rozga quda bo'l mish
5. **Bo'ritosh** – qudaposhsho
6. **Qo'zigul** – ularning erka qizi
7. **Bo'rivoy** – Norqo'chqorning oshnasi, bo'ydoq

BIRINCHI PARDА

(I-ko'rinish)

Bularning yuzida ozgina qizili bo'lgani bois ismiga nor qo'shib qo'yilgan. Ammo toji qaerida xo'roznikimi, shoxnikimi buni hech kim bilmaydi... Kimlardir bularning norini qoldirib tojini yulib tashlash tarafdoi.

Norxo'roz bilan Nortojining "nor"ini o'chirib ikkalasini bir-biriga qo'shilsa "TOJXO'ROZ" paydo bo'ladi. Agar Norqo'chqorning shoxlarini qayrib, "nor"ini yulib, Qo'zigulning "gul"ini payhon qilib, Qo'zini Qo'chqorga qo'shilsa, "QO'ZIQO'CHQOR" bo'lib ketadi. Bo'ritoshni "Bo"siz, oyog'ini osmondan teskari qilib, To'xliboy Qo'yboqarovga qo'shsa To'xliboy Qo'yboqarov "SHOTIR" bo'ladi. Bo'rivoyning "voy"ini olgani bilan uni hech qaday "SHOTIR", "TOJXO'ROZ"ga ham "QO'ZIQO'CHQOR"ga ham qo'sha olmaydi. Chunki yovvoyi, yovvoyi-da yeb qo'yishi mumkin.

Parda ochilganda Nortoji eriga qarab, jovrayotgan bo'ladi.

Nortoji: Sizga faqat ish bo'lsa bo'ldi. Qayoqdagi tovuq-povuqlar bilan o'ralashib yuraverasiz. Bitta-yu bitta o'g'limiz Qo'chqorning ham bo'yi yetib qolganiga ancha bo'p ketdi. Buni o'ylamaysiz. U qatorilarning bolasi maktabga borayapti. Siz bo'lsa to'rtta tovug'ingizning kuniga ikitidan tuxum tuqqaniga xursandsiz.

Norxo'roz: Xo'p, nima qil deysan, enag'ar.

Nortoji: Endi shu Qo'chqorniyam tengini topib.

(Norxo'roz xotinining gapini shartta bo'lib).

Norxo'roz: Qo'chqorni tezroq uylantiring demoq-chimsan?

Nortoji: Ha-da, Qo'chqor soch-soqoliga oq tushguncha bo'ydoq yuraveradimi?! Menam ellikka kiryapman. Haligacha ketim er iskamaydi. Qari kelinman.

Norxo'roz: Qisir echkiga o'xshamay qiz tug' edi. Kelin olsang qorningni qappaytirib u bilan "roddom"ga qiz tuqqani birga borasanmi?

Nortoji: Doim shunaqa qilasiz. Qiz tug'mading deb betimga sola berasiz. Xafa bo'ladi demaysiz. Mendayam ko'ngil bor axir (engi bilan ko'z yoshlarini artib-artib yig'laydi). Men ham ko'p qatori nevara-chevara ko'rgim keladi. Nevaralarimni erkabal, o'ynatib yursam deyman.

Norxo'roz: Bo'pti-bo'pti. Ertalabdan sho'rqlab ko'zingni suvini oqizaverma. Ko'ngli bor emish, ko'nglingni ko'chasini yantoq bosgur. Bironta ko'z ostingga olganing bormi o'zi?

Nortoji: bo'masa-chi.

Norxo'roz: Bo'lsa ayt.

Nortoji: (ko'z yosh bilan) Dung ovuldagi eski hamsoyamizning qizi bor. Hali erga tegmagan.

Norxo'roz: (ensasi qotib) Hali Qo'chqorga erga tegib chiqqanidan obermoqchimiding xomkalla. Ey-y, tavbangdan ketay, Xudo. Ishqilib xotinim shayton vasvasasiga yo'liqib jinni-pinni bo'p qomadimikin.

Nortoji: Darrov noto'g'ri tushunasisiz. Qanaqa ersiz o'zi?

Norxo'roz: Baquvvat, aqlli-xushli, kelishgan, xotinlar havas qiladigan erman. O'ttiz yildan beri bilmaganmiding galvars?

Nortoji: Oltmishga kirsangiz ham qarib quyilmadiginiz-da, chol. Soqolingiz selkillab qolgandayam huddi shunday yurasizmi?

Norxo'roz: Xo'p-xo'p dardingni ayt, dardingni. Qo'chqorga kimni obermoqchiyding?

Nortoji: Oting qurg'ur, oti nimaydi-ya (huddi bitlab ketganday boshini qashlab kelinlikga nomzod qizning ismini eslashga urinadi). Tilimning uchida turibdi, oti nimaydi-ya.

Norxo'roz: Yutvormagin tag'in tilingni uchida turgan bo'lsa. Chaynab ham yuborma (kuladi).

Nortoji: To'xixonmidi hozir-hozir hozir aytaman. Ha-a, esimga tushdi. Qo'zigul! Oti Qo'zi edi. Qo'chqorni shu

Qo'ziga uylantirib qo'ysak zo'r ish bo'lardi otasi. Ikkovi huddi qozonga qopqoq, bo'yinga munchoqday mos tushadi. Tandir yoqib, non yopmasdim. Eng shimarib kir yuvmasdim. Hammasidan qutilardim.

Norxo'roz: Sen Qo'chqornimas, o'zingni ishdan qutqarishni o'ylaysan ko'proq. Bo'pti men ishga borib kelay kechqurun gaplashamiz.

Nortoji: Xo'p deng otasi, maylimi (*Nortoji erining bo'yniga osilib erkaklik qiladi*).

Norxo'roz: Kechga kengashamiz dedim-ku. Olamushukka o'xshab suykalavermagin.

Nortoji: Xo'p deng endi, otasi (erining rozilagini olish ilinjida yolg'ondan qizni maqtay ketadi). Men uning bolaligini bilaman. O'ziyam bilaklari boltaday, barmoqlari o'qlovday qiz qurmagur. Yaqinda bir ko'rganiyidim dupperust qiz bo'pti. Har qalay "goratskoy", nozigoyim emas. Eng muhim, ishga yaraydi.

Norxo'roz: Baraka topgur xotin, bas qil, dedim-u. Sensizam tashvishim yetarli. Tovuqlarimga kasal tegib, qirilib ketyapti. Nima qilishni bilmay fig'onim falak. Boshim qotib yotibdi. Nortoji – Yo'tal tekkdir, "Kargrip ichiring" otasi. "Kargrip".

(Norxo'roz xoxolab kulib yuboradi).

Norxo'roz: Voy esi yo'g'-ay, voy tentak xotinay. Nima u senga odammidiki yo'tal tegsa?

Nortoji: Odam bo'lmasa nega kasal bo'ladi. Shamollab qolgandir. Yo tuxumga boshi qorong'i bo'lganlari ko'zi yorishga qiynalib o'lib qolayaptimikin-a, voy bechora tovuqlar.

Norxo'roz: (kinoya bilan) Besh baho senga xotin. Onang seni professor tuqqanda. Tovuqning ikkiqat bo'lismi sendan eshitayapman. Qoyilman senga. Tovuq yana nimalar bo'ladi? Homilador bo'ladi, o'lganlariga ta'ziya qiladi, janoga o'qydi, uchini, yettisini, yigirma va qirqini qiladi, keyin yil oshini beradi, to'g'rimi? Sen bilasan-ku, xotin. Seni janozasiga ham aytgandir. Yuring, o'zim moshinada oborib kelaman. Sochi uzun, aqli kalta professor xonim-ay. Qoyilman sizga, lekin.

Nortoji: Nima, tovuq tuxumga boshqorong'i bo'lmaydimi? Xo'p, siz aqllisiz, donosiz. Bu holatni yana nima deb atash mumkin. Qani, sochi kalta professor, nima deya olasiz bu haqda? Aniq bilaman, hech narsa deyolmaysiz. Chunki bilmaysiz. Faqat xotin bechorani kamsitib, ustidan kulishni bilasiz.

Norxo'roz: Tuhmat qilma, xotin. Tuhmat yomon narsa. Birinchidan ustingdan emas, yoningdan kulayapman. Ikkinchidan, tovuq kurk bo'ladi, tuxum bosadi va keyin jo'ja ochib chiqadi, vassalom.

Nortoji: Xo'p, o'sha tuxumga ikkiqat bo'ladi yosizningcha tovuqqa tuxum osmondan tushadimi?

Norxo'roz: Makiyon ko'zini suzib turgach, xo'roz patini yozadi-da, xotin.

Nortoji: Jiddiy gapiring, nima bo'lyapti o'zi?

Norxo'roz: Kun qizib ketgani uchun uchib kelayotgan qushlardan "parranda gripi" tarqayotganmish.

Nortoji: Tarqamay o'lsin, mo'dashuv.

(Uyqusirab ko'zlarini ishqalagancha Qo'chqor kiradi).

Qo'chqor: Assalomu alaykum, ena, qandaysiz? Nima bo'ldi sahamardondan otam bilan yoqalashguday bo'layapsiz. Otamning ham "nastrainasi" yo'q.

Norxo'roz: Dard bo'ldi, balo bo'ldi.

(Qo'chqor onasiga yuzlanib, boshi bilan nima gap ishorasini qiladi).

Norxo'roz: Ko'rmayapsanmi, enang bilan menam merovga o'xshab adi-badi aytishib o'tribman-a. Ishga borishim kerak. Kechikayapman. (Norxo'roz chiqib ketayotib) shunday zaharli ilon bilan o'ttiz yildan beri qanday yashapman o'zim ham bilmayman (o'ziga o'zi gapirib chiqib ketadi).

Qo'chqor: Ena, nima bo'layapti o'zi? Hech narsaga tushunmayapman.

Nortoji: Nega tushunmaysan shipana. Hammasi seni, deb bo'layapti. Seni uylantiraylik, desam otang hech qulq solmaydi. Senam yigit bo'lib bir narsa desang-chi, axir.

Qo'chqor: Bir narsa, bir narsa, bir narsa. Bo'ldimi, shu xolosmi? Yo, yana bir narsa deyinmi?

Nortoji: Sal jiddiy bo'lib bir og'iz ota uylantiring, deyolmaysan. Hech qursa kalishiga sabzi tiqb qo'y, toza uylasang.



Doniyor MIRZO

Qo'chqor: Otam kalish kiymaydi-ku, ena.

Nortoji: Muncha landavur, lapashang bo'lmashang. Kalish kiymasa patinkasiga tiq.

Qo'chqor: Sholg'om tiqsam ham bo'laveradimi? (Qah-qah otib kuladi).

Nortoji: Yop chakagingni, sho'rtumshuq. Tovushing Qo'qonga ketyapti. Hamsoyalar eshitsa, nima deb o'laydi?

Qo'chqor: "Ring qirollari" bo'layapti, deb o'laydi-da, ena!

Nortoji: Hoy kallavaram, kartishka. Karam tiqsang ham bo'ladi. Urug'-aymog'imizda senga o'xshagan lattachaynar o'tmagan. Kimga o'xshagansan o'zi hayronman.

Qo'chqor: (miyig'ida kulib) qo'shniga o'xshaganman ena, qo'shniga.

Nortoji: Ha-a, beting qursin, itvachcha (Burchakda yotgan supurgini qo'liga olib Qo'chqorni quva boshlaydi). Seni bir parcha ettan katta qip endi o'zim tuqqan bolamdan shu gapni eshitamanmi. Issig'ing chiqib o'laman deb, yotganingda uxlamay dori berib, chiqardim. Endi o'zing katta bo'p ketganday tiling bir qarich.

Qo'chqor: (chir aylanib qochadi) Men hech qachon isitma qilmaganman, ena. Bolalikdan otday bo'lganman. Alpomishning boychibori ham oldimda ip esha olmagan (bilaklarini ko'ssatib). Taysonda ham yo'q bunaqa muskullar. Kasalmand bo'lganga o'xshaymanmi. Yo'q albatta. Demak, siz aldayapsiz.

Nortoji: Nima deydi bu betingdan buzilgur Qorning shishib, to'yan qo'ziday, damlab, yorilguday bo'p yotganingda men seni "klizma" qilardim. Bolam beshikda azob tortmasin, deb erda yotqizib ko'z yummay yig'lab chiqardim. Qoqbosh.

(Qo'chqor yana qochadi. Yugurib borib onasining osig'lik turgan ko'ylagini olib, goh o'ng, goh so'it tomonidan boshigacha bekitadi. Nortoji Qo'chqorning supurgi bilan ko'ylagi aralash uch-to'rt mata uradi).

Qo'chqor: Voy-voy, enajon. Supurgi bilan urmang, yomon bo'ladi.

Nortoji: Ko'zing o'yilgur, sen buni qayoqdan bilasan? Xotinchalish...

Qo'chqor: Bilaman-da, nima endi men sizga yosh bachchamanmi!

(Nortoji yana bir-ikki marta tushiradi).

Qo'chqor: Voy qo'lim, voy belim, voy jonim yomon tegayapti. Sekin-astaroq uring. Enajon hazillashdim-ku, axir. Hazillashdim!

Nortoji: Ha otangga o'xshamay har balo bo'lgur. Kep-kep tuqqan enang bilan hazillashasanmi. He turqing qursin. Bo'ying terakday, aqling serakday bo'lmay ketgur. Yo'qol! Ko'zimga ko'rinning! Qorangni o'chir!

Qo'chqor: Qoramni o'chirib, oqimni yoqsam ham bo'laveradimi.

Nortoji: (ko'z yoshi qiladi) Peshonamga yozgani shumidi. Bitta-yu bitta bolam ham betayingarchilik qilib o'ttizgacha bo'ydoq yursa.

Qo'chqor: Ena-a, siz aytgancha bo'laqolsin. Siz nima desangiz shu. Uylan desangiz, sharta uylanaman qo'yaman. Lekin to'rva-xaltani elkamga ortib, ro'zg'orning g'orini to'ldiraman, deb yurmayman.

Nortoji: Voy o'zim aylanay, sendan. O'rgilayin qoqindiq. Bo'ylaringga bo'yumor. Tilingga shakar (hozirgina supurgi bilan turtkilayotgan Qo'chqorning yuzlaridan cho'pillatib-cho'pillatib o'padi). Oyog'imni qo'limga olib, bugunni ertaga qo'ymay qiz ko'rgani boramiz. Yur, bolam kettik. Men senga onasi o'pmaganidan topib qo'yanman. Ikkalamiz qiz ko'rgani boramiz. Qo'chqor bir oyog'iga yangi tuflisini bir oyog'iga otasining eski kalishini kiyib oladi.

Davomi kelgusi sonda.



E'zoz topgan san'atkor

1 Yuzlab iste'dodlarni, xalq artistlari-yu, xalq hofizlarini, "Nihol", "Zulfiya" nomidagi davlat mukofoti sovindorlarini voyaga yetkazayotgan maskan Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabida ustoz Abdushoshim Ismoilov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan ijodiy kecha va mahorat darsi o'tkazildi. Ushbu tarixiy kun maktab o'qituvchi va o'quvchilar uchun haqiqiy san'at bayramiga aylandi.

Abdushoshim Ismoilov o'zbek xalq an'anaviy musiqa merosiga suyangan holda o'zining zamnaviy talqindagi uslubini yaratgan, ushbu ijrolarning uyg'unlashuvida o'ziga xos ijroviy yo'naliishga ega bo'lgan ijodkordir. U qadimiy g'ijjak sozining nimalarga qodir ekanligini o'z ijrochilik mahorati bilan namoyon etib kelmoqda. Abdushoshim Ismoilov 1952-yilda Farg'ona viloyati Quva tumanining Chaman qishlog'ida tavallud topgan. U dastlabki saboqni bobosi va onasidan, keyinchalik taniqi san'atkor bo'lib yetishgan tog'asi Omonjon va akasi Sharofiddin Ismoilovdan oladi. O'sha vaqtida Quva tumanida hukm surgan ijodiy muhit ham uning taqdirda muhim o'rinn tutadi. Tavakkal Qodirov, Isroilijah Usmonov singari mashhur hofizlar yosh Abdushoshimdag'i san'atga bo'lgan iste'dodni payqab, unga Farg'ona san'at bilim yurti (hozirgi Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabi)da tahsil olishni tavsija qilishadi. Bilim yurtida ustozi Omonjon Abdulhakimovdan g'ijjak sir-asrорlarini qunt bilan o'rganadi. Bastakor va sozanda Muhammadsiddiq Madaliyevdan xalq an'anaviy musiqa ijrolarini o'zlashtiradi.

Abdushoshim Ismoilov 1975-yil Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyanining "Sharq musiqasi" kulliyotiga o'qishga kiradi. Bu dargohda Faxriddin Sodiqov, Mahmudjon Muhammedov, Orif Alimaxsumov, Turg'un Alimatov singari ustozlardan sozandalik va bastakorlikning o'ziga xos xislat-fazilatlarini o'rganadi. 1975-yildan uning ijodiy faoliyati Yunus Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambl bilan bog'lanadi. Dastlab bu ansambla sozanda, musiqa rahbari, keyinchalik va hozirgi kunga qadar ansamblning badiiy rahbari sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. San'atkorning ijodiy faoliyati bir necha yo'naliishlarda o'z aksini topgan. Avvalo uning sozandalik faoliyatiga nazar tashlasak, g'ijjak sozining mohir ijrochisi sifatida Komiljon Jabborov, G'anijon Toshmatov, G'ulomjon Xoqiqulov singari ustoz san'atkorlar an'analarini davom ettirib, mumtoz musiqiy

merosimizga suyangan holda o'z ijrochilik maktabini yaratganiga guvoh bo'lamiz. Shunungdek, g'ijjak sozining imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ijro mahorati vositasida zamnaviy talqindagi ijro uslublarini ko'ramiz. Bunga misol tariqasida ustoz san'atkor bastalagan "Holim so'rma", "Dil nolasi", "Kamon nidosi", "Qalb sadosi", "To'yona", "Gullola", "Xayoli qiz", "Visol", "Uchrashuv" kabi asarlarni keltirishimiz mumkin. Ayniqsa, ushbu ijrolarning yanada rivojlanganligini O'zbekiston xalq artisti Abdulahad Abdurashidov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Abdurahmon Xoltojiyev singari taniqli sozandalar ishtirokida tuzilgan "O'zbek yulduzlar" ansamblı ijrosidagi "Mustaqillik", "Favvora", "Buyuk chinor", "Hayronaman" singari asarlar misolda ko'ramiz.

Ustozning bastakorlik ijodi ham sermazmun. Jumladan, o'zbek mumtoz shoirlari g'azallariga bastalangan "Dilimga g'amzadin", "Yorsan", "Munavvar qil", "Ayriliq", "Yor emas", "Sarvinoz", "Tarannum etmading", "Unutma", "Mushkuldir", "Yorima aytning", "Ang'iz", "Janon qaro ko'zingga", "Osmonda ham yo'q", "Uyg'onmasun" kabi talay asarlardagi g'azal ruhi va musiqanining hamohangligi ajib bir ijo kasb etadi. Xalqimizga sevimli va mashhur xonandalarning ijro imkoniyatlardan kelib chiqib, maxsus yaratilgan qo'shiqlari alohida ijod qirrasi sifatida talqin etiladi.

O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O'zbek milliy Maqom san'ati markazi bilan hamkorlikda 2022-yilda ustoz san'atkorlarimizning yubiley sanalarini nishonlash tavsiyasi berilgan edi, qolaversa, Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabi rejasiga asosan, o'quv yili boshidan buyon bir qator xalqimizning sevimli san'atkorlarini, tajribali pedagog ustozlarni taklif etib, ijodiy uchrashuv va mahorat darslari tashkil etib kelmoqda. Shu munosabat bilan Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabida, milliy musiqamizning bugungi kundagi darg'asi, ustoz Abdushoshim Ismoilov ishtirokida o'tkazilgan ijodiy uchrashuv va mahorat darsi maktab o'quvchi va o'qituvchilar, qolaversa, tashrif buyurgan barcha mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

Xursanoy TILLANAZAROVA,
Respublika musiqa va san'at kolleji
o'qituvchisi

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Ma'rufjon YO'L DOSHEV

Tahrir hay'ati:

Sobirjon JUMAYEV
Hamdam ISMOILOV

Mas'ul kotib:

Ozoda SHOBILOLOVA
Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,

Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

www.dsni.uz;

nashriyot@dsni.uz

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi. O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.

Nusxasi – 250 dona. Narxi kelishilgan holda.

Chop etishga 20.02.2023-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta oyning oxirgi haftasida "KAMALAK PRESS" MChJ bosmaxonasida chop etiladi.

Manzil: Navoiy ko'chasi 30-yu.

Sessiya taassurotlari

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining barcha fakultetlarida yakuniy nazorat olib borildi. Institutimiz rahbariyati tomonidan yakuniy nazorat jarayonlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilib berildi. Har bir yakuniy nazorat jarayonlari fakultetlarda qiziqarli va o'ziga xos tarzda olib borildi.

Saida ERGASHEVA,
"Kutubxona-axborot faoliyati" ta'lim yo'naliishi
3-bosqich talabasi

Bizga ma'lumki, har chorakda, yurtimizdagi oliy o'quv dargohlarida yakuniy nazorat ishlari olib boriladi. Shu jumladan, bizning O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutimizda ham. Har bir yakuniy nazorat jarayonlarda birinchi navbatda kuchli nazorat va shaffoflik birinchi o'rindadir. Yakuniy nazorat jarayonlari o'tilgan mavzu manbalari asosida olib borildi.

Dinora RAHIMBOYEVA,
"Kutubxona-axborot faoliyati" ta'lim yo'naliishi
3-bosqich talabasi

Men **Nigina Bahronova** O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Kutubxona-axborot faoliyati" ta'lim yo'naliishi 3-bosqich talabasiman. Bu yilgi yakuniy imtihonlar yuqori darajada va shaffof tarzda bo'lib o'tdi. Nazorat savollari talabalarning bilim darajasi hamda o'tilgan mavzular asosida tuzilgan.



Men **Og'abek Hasanov** Xalq ijodiyoti fakulteti "Folklor va etnografiya" ta'lim yo'naliishi 2-bosqich talabasiman. Hozir bizda yakuniy nazorat imtihonlari topshirilmoqda. Imtihonlar albatta, yuqori saviyada va shaffoflik bilan o'tkazilmoqda.

Xalq ijodiyoti fakulteti "Ashula va raqs" ta'lim yo'naliishi 4-bosqich talabasi **Odilbek Sodiqov** bo'laman. Mana, chorak imtihonlarimiz yuqori saviyada, shaffoflik bilan o'tkazildi. Juda yaxshi baholarga topshirdik. Kayfiyatimiz yaxshi. Talabalarga omad, ustozlarga sog'lik-salomatlik tilab qolamiz.

SESSIYA

Talabalikning birinchi
Imtihonin kutib oldim.
Do'stlarim, bering suyunchi,
Sessiyadan o'tib oldim.



Uyda, ishda, yo'l, bekatda
Daftар kitob titib toldim.
Foydasи bo'ldи albatta,
Sessiyadan o'tib oldim.

Oson savol tushsa yashnab,
Qaddimni rost tutib oldim.
Qiyin bo'lsa boshim qashlab,
Sessiyadan o'tib oldim.

Bir hafta tushib tashvishga,
Nafas, zo'rg'a yutib oldim.
Omad kulib to'rt va beshga,
Sessiyadan o'tib oldim.

Shodligimdan xandon otib,
She'rimni ham bitib oldim.
Uxlayman shu bugun qotib,
Sessiyadan o'tib oldim.

Shahnoza RO'ZIYEVA,
"Kutubxona-axborot
faoliyati" ta'lim yo'naliishi
1-bosqich talabasi